



### FOYDANI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Yangiyeva N.S.**

Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal institut

**Annotatsiya.** Maqolada foydani soliqqa tortish mexanizmi, foydani to'g'ri taqsimlash va oqilona foydalanish, maqbul soliq stavkasi, korxonalar faoliyatini optimallashtirish maqsadida foydani soliqqa tortish masalalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** foyda solig'i, soliq mexanizmi, jami daromadlar, imtiyozlar, maqbul soliq stavkasi, sof foya, soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanadigan xarajatlar, soliq bazasini aniqlashda chegirilmaydigan xarajatlar

**Аннотация.** В статье анализируются механизм налогообложения прибыли, правильное распределение и рациональное использование прибыли, оптимальная налоговая ставка, вопросы налогообложения прибыли в целях оптимизации деятельности предприятий.

**Ключевые слова:** налог на прибыль, налоговый механизм, совокупный доход, льготы, оптимальная налоговая ставка, чистая прибыль, вычитаемые расходы при определении налоговой базы, невычитаемые расходы при определении налоговой базы.

**Annotation:** The article analyzes the mechanism of profit taxation, the correct distribution and rational use of profit, the optimal tax rate, and the issues of profit taxation in order to optimize the activities of enterprises.

**Key words:** profit tax, tax mechanism, total income, benefits, optimal tax rate, net profit, deductible expenses in determining the tax base, non-deductible expenses in determining the tax base.

#### 1. Kirish.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar foydasini soliqqa tortish iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Foydani soliqqa tortish davlat budgeti va xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy xo'jalik faoliyatiga ta'sir etuvchi vosita hisoblanadi. Foya korxonalarning oxirgi moliyaviy natijasi sifatida uni soliqqa tortishni takomillashtirish hozirgi kunda ko'pgina davlatlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turli mulk shaklidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning asosiy ko'zlagan maqsadi kam harajat qilib, ko'proq foya olishga harakat qilishdir. Shuningdek, korxonalar budgetga o'z vaqtida soliqlarni to'lab, har qanday jarimalarni to'lashga duch kelmasligi lozim. Soliq siyosatini takomillashtirish va iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni ta'minlashda foya solig'ining xo'jalik sub'ektlari faoliyatiga ta'sirini optimallashtirish muhim omil hisoblanadi. Shu yo'naliishdagi vazifalar foydani soliqqa tortishni takomillashtirish asosida

xo'jalik sub'ektlari qo'lga kiritadigan foydani aniqlash va tartibga solish muammolarini hal qilish lozimligini ko'rsatadi.

Foydani soliqqa tortish xo'jalik sub'ektlari moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bo'lib, bunda korxonalar tomonidan foydadan oqilona foydalanish bilan birgalikda uni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlarini ham isloh qilish lozimligini taqozo etadi. Shunday ekan, rivojlanayotgan innovatsion iqtisodiyot sharoitida foydani soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

## **2. Adabiyotlar sharhi.**

Foydani shakllantirish va taqsimlash masalalari bilan shug'ullangan olima S.S.Aliyeva (2011) foydani tadbirkorlik faoliyati natijalari uchun to'lov, ya'ni aynan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun resurslarni oqilona birlashtirishi, korxonani boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishi, mahsulotlarning yangicha turlarini joriy qilishi, ishlab chiqarish jarayonini o'zgartirishi uchun shuningdek, iqtisodiy tavakkalchilik uchun mukofot sifatida ta'kidlab o'tgan.

N.Karimov (1998) foydani iqtisodiy kategoriya sifatida ta'riflab, qo'shimcha mahsulotning bir qismini ishlab chiqarish va taqsimlash bilan bog'liq ishlab chiqarish munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil etishini va u yangidan yaratilgan qiymatning bir qismi sifatida namoyon bo'lشini ta'riflab bergan. Foyda iqtisodiy kategoriya sifatida ma'lum bir qismini davlat budgetiga yo'naltirish orqali mamlakat rivojlanishini ta'minlashda alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun korxona foydasining bir qismini davlat budgetiga o'tkazish bozor iqtisodiyoti sharoitlarini ta'minlashda muhimdir.

Ingliz iqtisodchisi J.Xiks (1931) foydani ma'lum vaqt oralig'ida ishlatish mumkin bo'lgan va davr oxirida davr boshiga nisbatan ijobji qoldiqqa ega bolishi kerak bo'lgan ko'rsatkich deb ta'kidlaydi. Foyda bozor mahsuli sifatida pul mablag'larni taqsimlash vazifasini bajarib, ishlab chiqarish va boshqa tarmoqlarni har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi.

A.I.Dobrinina, G.P.Juravlevoylar (2003) ishlab chiqqan qiymatning mehnat nazariyasiga muvofiq, foydani shakllantirish manbai ishlab chiqarish sohasidagi ishchilarining yollanma mehnati – degan fikrni ilgari surishgan. Foydani aniqlash va uni shakllantirish tizimini tadqiq qilish orqali ular ishlab chiqarish sohasidagi ishchilar yollanma mehnat qo'shimcha mahsulot va qo'shimcha qiymatini konvertatsiya qilingan shakli ekanligini ilgari surishgan.

V.V.Manuylenkoning (2012) fikriga ko'ra, foydani shakllantirish, taqsimlanish, foydalanish va baholash jarayonida moliyaviy, tashkiliy va huquqiy jihatlardagi bir qator muammolar yuzaga keladi, ularni hal qilish faqat tizim ichida islohotlarni amalga oshirilishini taqozo qiladi.

Foydaning neoklassik nazariyasi tarafдорлари V.S.Tereshyenko, A.M.Korogodinoning (2017) fikriga ko'ra, foyda tadbirkorlik foydasi nazariyasi va innovatsion foyda nazariyasiga bo'linadi. Tadbirkorlik foydasi risk va foydaning dialektik o'zaro bog'liqligini ifodalasa, innovatsion foyda nazariyasiga muvofiq innovatsiyalarni keng joriy etish foyda normasini maksimallashtirishning bosh omili ekanligi aytib o'tganlar.

Amerikalik iqtisodchilar K.Makkonel, S.Bryular (2014) ham foyda nazariyasini quyidagicha talqin qilishgan, foydani shakllantirish va maksimallashtirish imkoniyati ishbilarmonlik riski uchun to'lov bilan ishlab chiqarish omillarini uyg'unlashtirishga bog'liqligini e'tirof etishgan.

Rossiyalik iqtisodchi olim I.A.Mayburovning (2015) soliq mexanizmiga shunday ta'rif bergen: "Soliq mexanizmi – o'zida mamlakatning mavjud bo'lishini ta'minlash uchun soliq tizimini boshqarish tartibini belgilaydigan huquqiy me'yorlar tizimi va tashkiliy choralarini ifodalaydi". Foyda solig'i mexanizmi – soliq siyosatini takomillashtirish va korxonalar

faoliyatini optimallashtirish maqsadida foydani soliqqa tortish munosabatlari va soliq elementlari yig'indisidir. Foydani soliqqa tortish mexanizmidan shunday foydalanish kerakki, budjet daromadlariga foyda solig'i o'z vaqtida tushishi, shuningdek bir vaqtning o'zida yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish orqali foyda olishni ham ta'minlashga turki bo'lishi lozim.

### **3. Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotimiz metodologiyasi bo'lib, foydani soliqqa tortish bo'yicha iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi. Foya va foya solig'i bo'yicha nazariy masalalar umumlashtirildi. Tadqiqot jarayonida amaliy materiallarni taqqoslash va guruhash kabi usullardan foydalanilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.


### **4. Tahlil va natijalar.**

Foydani qanday usul bilan soliqqa tortilmasin u davlat budgetiga va budjet orqali xo'jalik subyektlarini iqtisodiy potensialini rivojlantirishga xizmat qiladi. Foydani soliqqa tortish mexanizmi har qanday tarmoqqa soliq siyosati qoidalari va tamoyillarga mos holda ularni rivojlanishi uchun o'z ta'sirini ko'rsata olishi kerak. Agarda bunday munosabatlarda foydani soliqqa tortish elementlari zaiflik qilsa, unda uni tartibga keltirish, soliq elementlari tarkibini maqbullashtirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilishi lozim.

Foydani soliqqa tortishni tartibga soluvchi mexanizm elementlari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- Soliq stavkasi.
- Soliq ob'ekti.
- Soliq sub'ekti.
- Soliq imtijozi.
- Soliq bazasi.

Bu elementlarning harakati qonunlar, qarorlar va farmonlar bilan amalga oshiriladi. Foya solig'i stavkasi hozirgi vaqtgacha juda ko'p marta o'zgarganini ko'rishimiz mumkin (1-rasm).



**1-rasm. O'zbekiston Respublikasida foya solig'i stavkasining o'zgarish dinamikasi<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining mos yillarga mo'ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va davlat budgeti to'g'risidagi qonuni ma'lumotlari asosida tuzildi.

Foydani soliqqa tortish va undan maxsus soliq undirilishi, uni miqdor va sifat jihatidan ifodalovchi ko'rsatkichlarni vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu ko'rsatkichlarning ba'zilari foyda solig'ini hisoblashga asos bo'lsa, boshqalari bevosita soliqni hisoblanishi, to'lanishi, korxona ixtiyorida qoldirilishi va boshqa jihatlarini ifodalaydi. Shuningdek, ushbu jihatlar foyda solig'ini hisoblashga asos bo'lувчи hamda foyda solig'ini ifodalovchi foyda solig'i ko'rsatkichlari deb atashga asos bo'ladi. Foyda solig'i ko'rsatkichlari axborot berish va nazorat qilishning asosiy vositalari bo'lgan buxgalteriya hisobi va auditining asosiy ob'ektlaridan biri hisoblanadi. Foyda solig'inining muhim ahamiyatga molikligi, unga bog'liq doimiy ravishda mavjud bo'ladigan axborot riski darajasini pasaytirish zarurati hisoblanadi.

2015-2022 yillarda budget daromadlari tarkibida foyda solig'i ulushi o'zgaruvchan bo'lsa, foyda solig'i miqdori esa o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan (1-jadval).

#### 1-jadval


#### **2018-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida foyda solig'inining budget daromadlaridagi ulushi**

| Korsatkichlar   | 2015 yil | 2016 yil | 2017 yil | 2018 yil | 2019 yil | 2020 yil | 2021 yil | 2022 yil |
|---|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|
| <b>Foyda solig'i to'lovchilar soni</b>                      | 12391    | 9171     | 8197     | 6723     | 7609     | 53051    | 112336   | 140566   |
| <b>Budgetga o'tkazilgan foyda solig'i, mlrd.so'm</b>        | 1180,5   | 1215,1   | 1475,5   | 3502,2   | 16360    | 22058,7  | 38363    | 38557    |
| <b>Budget daromadlarida foyda solig'inining ulushi, %da</b> | 3,2      | 3        | 2,9      | 16,2     | 14,6     | 21,6     | 23,3     | 19,8     |

Xususan, 2022-yil foyda solig'i miqdori 2020-yilga nisbatan 1,74 barobarga ko'paygan. Ya'ni soliq bazasining kengayishi hisobiga foyda solig'i miqdori oshganini korishimiz mumkin. Budget daromadlari tarkibida foyda solig'inining ulushi 2022-yilda 2020-yilga nisbatan 1,8 % ga kamaygan. Foyda solig'i stavkasi yildan-yilga pasaygani hisobiga bunday holat yuzaga kelganligini ko'rishimiz mumkin. 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil foyda solig'i to'lovchilar soni keskin oshgan. Bunga sabab, soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi asosida yillik aylanmasi 1 mlrd so'mdan oshgan korxonalarining foyda solig'i to'lashga o'tganligi hisoblanadi.

Xo'jalik sub'ektlari har qanday holatda ham foydani bir maromda o'sishini ta'minlash uchun harakat qilishi lozim. Bu orqali esa foydani soliq ob'ekti sifatida ushlab turishga imkon yaratadi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, foyda boshqa soliq ob'ektlariga nisbatan o'ziga xos bir xususiyati foydani soliq ob'ekti sifatida pasayishi kuzatilsa, budget daromadlari tarkibida foyda solig'i ulushi kamayib ketishi mumkin, ammo korxonaning boshqa faoliyatidan olinadigan majburiy to'lovlarini o'sishiga imkon yaratadi.

Foyda solig'ini takomillashtirish orqali soliq solinadigan bazani kengaytirishga erishilmoqda. Foyda solig'i tushumlari 2022 yilda 38,6 trln. so'mni, 2021 yilda 38,4 trln. so'mni yoki YAIMning 5,6 foizini tashkil etgan.



**2-rasm. 2018-2022 yillarda foyda solig'i tushumining YAIMdagi ulushi dinamikasi<sup>2</sup>**

Foyda solig'i tushumning oshishiga olib kelgan omillar sifatida aytish mumkinki, qimmatbaho metallarning narxi oshishi, 2019 yildan boshlab majburiy ajratmalarning bekor qilinishi va ijtimoiy soliqning 25 % dan 12% ga pasaytirilishi natijasida yirik korxonalarining foyda solig'i bazasi oshgan.

Foyda solig'inining tarkibiy qismlarini tahlil qiladigan bo'lsak, asosiy ya'ni 65% dan yuqori qismi kon qazib olish korxonalariga to'g'ri keladi.

#### 2-jadval

#### **"O'zbekneftgaz" Aksiyadorlik jamiyatining 2018-2022-yillardagi foyda solig'i ko'rsatkichlari<sup>3</sup>, mln. so'mda**

| Ko'rsatkichlar        | 2018 yil  | 2019 yil  | 2020 yil    | 2021 yil    | 2022 yil   |
|-----------------------|-----------|-----------|-------------|-------------|------------|
| <i>Umumiy daromad</i> | 127 716,8 | 481 368,3 | 15484 217,3 | 14695 723,8 | 17097632,2 |
| <i>Imtiyozlar</i>     | 0         | 3 615,1   | 833 223,9   | 726 795,5   | 0          |
| <i>Soliq bazasi</i>   | 0         | 177 142,6 | 2 486 393,3 | 3 211 534,7 | 0          |
| <i>Soliq stavkasi</i> | 14%       | 12%       | 15%         | 15%         | 15%        |
| <i>Foyda solig'i</i>  | 0         | 21 257,1  | 372 959,0   | 481 730,2   | 0          |
| <i>Soffoyda</i>       | 127 716   | 460 111   | 3 293 049   | 3 348 792   | 1 089 087  |

O'zbekneftegaz aksiyadorlik jamiyatining yillik umumiyligi daromadi barqaror o'sib borgan bo'lib, 2018 yilda 127 716 mln so'mni, 2022 yilda 17 097 632 mln so'mni tashkil etgan. Mahsulot sotishdan olgan daromadi 2022 yil 13 254 870 mln so'm bo'lgan bo'lsa, 2021 yilda 12 426 518 mln so'mni tashkil etgan. Ya'ni mahsulot sotishdan olingan daromadi 2022 yilda 2021 yilga nisbatan 828 352 mln so'm oshganiga qaramay, chegirilmaydigan xarajatlarning oshgani hisobiga korxona soliqqa tortiladigan foydaga chiqmagan. 2022 yilda jamiyatning umumiyligi xarajati 2021 yilga nisbatan 1,67 barobarga o'sgan.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2018-2022 yillardagi ma'lumotlari

<sup>3</sup>"O'zbekneftgaz" AJning 2018-2022-yillardagi soliq hisoboti ma'lumotlari.

## 5. Xulosa va takliflar.

Tahlil natijasida shunday xulosa qilishimiz mumkinki, mamlakatimizda foydani soliqqa tortish mexanizmi hali ham mukammal emas. Xususan, soliq stavkalarini muvofiqlashtirish masalalari, ya'ni foyda solig'i stavkalari, ishlab chiqarish korxonasi shuningdek, har qanday xo'jalik sub'ektlari uchun foyda solig'ini rag'batlantirish xususiyati va maqsadli yo'nalishlari bo'yicha muvofiqlashtirish lozim. Mamlakatimiz soliq tizimida foyda solig'i orqali korxonalar investitsion qo'yilmalarni rag'batlantirish masalalarini ko'rib chiqish lozim. Xususan, korxonalar foydasi hisobidan zaxira fondlarini shakllantirilishi va undan foydalanimishi xo'jalik sub'ektlari uchun soliq krediti berishni kengaytirish lozim. Shuningdek, moliyaviy manbalarni rejalashtirish va jamg'arishga xarajatlar uchun berilgan soliq imtiyozlari bilan birgalikda yangi rag'batlantirish me'yorlarini joriy etish mumkin. Shunday qilib, mustaqillik yillardan hozirgi kunga qadar foyda solig'i orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashda faqat foyda solig'i stavkasini pasaytirish orqali erishishga e'tibor qaratildi. Xususan, foyda solig'i stavkasi shu davr ichida 38% dan 15 % gacha pasaytirildi. Ammo bir qancha muammolar, xususan, soliq solish bazasini oshirish, eksport hajmini sezilarli darajada oshirish kabi masalalar to'liq o'z yechimini topmagan.

Foyda solig'i yukini pasaytirish orqali ilg'or va innovatsion texnologiyalar asosida mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash lozim. Naf keltiruvchi soliq imtiyozlarini joriy etish orqali tezkor qarorlar qabul qilish, maqbul soliq solish bazasini va stavkasini belgilash imkoniyatini beradi. Natijada xo'jalik sub'ektlari ishlab chiqariladigan tovarlari sifatini yaxshilash va zamon talabiga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatini oshiradi.

Foyda solig'ining maqbul stavkasi xo'jalik sub'ektlarini foyda olish orqali ularni rag'batlantirishni ta'minlashi, shuningdek, davlat budjeti daromadlari va investitsiyalar oqimi o'sishini ham ta'minlashi zarur. Shuning uchun har bir faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib, tadbirkorlik sub'ektlari daromadlarini ma'lum chegarasini buzmagan holda soliq stavkalarini qayta ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq.

### Adabiyotlar:

Ashurova N. (2018) Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. I.f.d. diss.avtoreferat.

Hicks J.R. (1931) The theory of uncertainty and profit //Economica.

Kodeks (2023) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.

Karimov N.F. (1998) Risklar va tijorat banklarining foydani shakllantirish muammolari: i.f.n.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati

Алиева С.С (2011) Совершенствование формирования и распределения прибыли предприятий в условиях модернизации экономики. Автореф.дисс. на соиск. Ученой степени к.э.н. – Т.: БФА.

Добрынина А.И., Журавлевой Г.П. (2003) Экономическая теория:учебник. –М.: ИНФРА-М.

Лабынцев Н. Т., Цепилова Е.С. (2013) Исследование взаимосвязи бухгалтерского (финансового) и налогового учёта прибыли в России и за рубежом. //Проблемы экономики. №3.

Макконел К.Р., Брю С.Л. (2014) Экономикс: принципы, проблемы и политика: Учебник.

Майбуров И.А. (2015) Налоги и налогообложение. Учебник. –М.:юнити-данаб.

Мануйленко В.В. (2012) Экономическая сущность, виды и функции прибыли хозяйствующего субъекта: современный аспект// Финансовая аналитика: проблемы и решения.

Терещенко В. С., Корогодино А.М. (2017) Генезис бухгалтерской и экономической мысли о прибыли предприятия. Мир науки и образования.